

XORIJIY KARTOSHKKA (SOLANACEAE) NAVLARINI INTRODUKSIYA QILISH

G'aybullayeva Moxinabonu Hayrullayevna

Raxmatova Xusnida Xaydarali qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda xorijiy kartoshka urug'larini har xil tuproq iqlim sharoitida yetishtirib, yuqori natija qayd etgan variantlar ishlab chiqarishga tavsiya qilinadi. Shuningdek, tezpushar duragaylar yangi navlarni yaratish uchun seleksionerlarga tavsiya etiladi.

Kalit so'z: kartoshka, Solanaceae, urug, nav, o'g'it, metamarfoz, umid, tuproq, kasallik, iqlim.

Annotation. In this article, it is recommended to grow foreign potato seeds in different soil and climate conditions and produce variants with high results. Also, quick hybrids are recommended to breeders to create new varieties.

Keywords: potato, Solanaceae, seed, variety, fertilizer, metamorphosis, hope, soil, disease, climate.

Аннотация. В данной статье рекомендуется выращивать зарубежные семена картофеля в различных почвенно-климатических условиях и получать варианты с высокими результатами. Также быстрые гибриды рекомендуются селекционерам для создания новых сортов.

Ключевые слова: картофель, пасленовые, семена, сорт, удобрение, метаморфоза, надежда, почва, болезнь, климат.

Kirish. Kartoshka tomatdoshlar oilasiga (Solanaceae) mansub bo'lib Solanum avlodini tashkil etadi. Bu avlod 200 dan ziyod yovvoyi, yarimyo'vvoyi va madaniy turlarni o'z ichiga olib, shundan faqat bitta Solanum tuberosum L. madaniy holda keng ekiladi. Kartoshkachilik dunyo dehqonchiligida, shu jumladan O'zbekiston qishloq xo'jaligida asosiy rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikamizda "O'zkartoshka" firmasi tashkil etilib, boshqa davlatlar firma, mutaxassislari bilan xamkorlik, tajriba almashish, turli urug', texnika va kimyoviy vositalar hamda o'stirish texnologiyalarini keltirib sinash, takomillashtirish va bir qancha ijobiy ishlar amalga oshiriladi. Natijada hozirgi kunga kelib kartoshka maydoni 50-55 ming gektarga yetkazilib, 0,7-0,8 mln. tonna yalpi hosil olinmoqda. Bunga albatta respublika sharoitida bajarilgan ilmiy- tadqiqot natijalari, ilg'orlar tajribasi va dunyoga mashhur texnologiya, fan texnika yutuqlarini joriy etish orqali erishilmoqda. Kartoshkachilikni rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri hosildorlikni oshirish, zamonaviy urug'chilikni tashkil etish va rentabellikni oshirish hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan kartoshkachilikni rivojlantirish aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishda alohida ahamiyatga ega. Kartoshka – oziq ovqat, yem-xashak va texnik ahamiyatga ega universal ekindir. U dunyo dehqonchiligida maydoni bo'yicha bug'doy, sholi, makkajo'xoridan keyingi o'rinda, ahamiyati jihatdan esa ikkinchi o'rinda turadi. Shuning uchun haqli ravishda ikkinchi non deb yuritiladi. Tuganak biokimyoviy tarkibi 75 % suv va 25 % quruq moddadan iborat. Quruq moddaning 70-80 % i kraxmal bo'lib, tuganakda uning miqdori 13-20 %, oqsil-2-3 %, kletchatka-1 %, moy-0,2-0,3 %, shakar-1 %, kul 0,8-1,0 % ni tashkil etadi (Ostonaqulov T.E., 1997).

Bundan tashqari u vitaminlar (C, B₁-B₃, PP, K va karotinoidlar) hamda mineral tuzlar, elementlar manbaidir. Ayniqsa, yosh pishmagan tuganaklar S vitamini yoki askorbin kislotasini 40 mg % gacha saqlaydi. Tuganaklar pishganda va saqlash mobaynida C vitaminining miqdori kamayib boradi.

Kartoshka tuganagi-qayta ishlaydigan spirt, kraxmal, dekstrin, glyukoza, kauchuk va boshqa sanoat tarmoqlari uchun xom ashyo hisoblanadi. Tarkibida 17,6 % kraxmali bo'lgan bir tonna kartoshka tuganagidan 112 litr spirt yoki 170 kgkraxmal va boshqa ko'plab mahsulotlar olish mumkin. Kartoshkadan olinadigan spirt tibbiyotda, kraxmal esa qog'oz, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlarida almashinmaydigan, tengi yo'q mahsulotdir (Pisarev B.A., 1986).

Kartoshka ekinining agrotexnik va agroiqtisodiy ahamiyati ham katta. Chunki, chopiq talab ekin bo'lgani uchun u yetishtirilgan dala tuprog'i yumshoq vabegona o'tlardan tozalanib, ko'plab boshqli va dukkakli don ekinlari uchun yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Ko'pchilik mamlakatlarda shudgorni band qiluvchi ekin sifatida o'stiriladi.

O'zbekistonda kartoshka asosan oziq-ovqat maqsadida ishlatiladi. Faqat, notovar mayda, sifatsiz tuganaklar hosili mollarga beriladi

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Kartoshka yumshoq tuproq ekini, chunki uning tugunagi yer ostida shakllanadi. Shuning uchun u tuproqning havo rejimiga yuqori talabchan. Kartoshka tuproqdagi oziq elementlarga talabchan o'simlik. Bu uning biologik xususiyatlari, ko'p miqdorda biomassa to'plashi va nisbatan ildiz sistemasining kuchsiz rivojlanganligi bilan bog'liq. O'rtacha xar 100 sentner (10 tonna) kartoshka hosili o'zi bilan 50 kg azot, 20 kg fosfor, 90 kg kaliyni olib chiqib ketadi. Oziq elementlarni yerdan olish bo'yicha kartoshka lavlagi va ba'zi texnik hamda sabzavot ekinlarni hisobga olmaganida ko'pchilik ekinlardan ustun turadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston respublikasi davlat reystriga kartoshkaning 100 dan ortiq navlari kiritilgan. Jumladan quvonch, red skarlet, gala, santé, romano, kondor, pikasso, marfona, sarnav, piskom, serhosil, umid, saviola, silvana, arizona, arnova, kabi navlari keng maydonlarda ekilmoqda.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida dala tajribalari natijalarini taxlil

qilishda mavjud metodik materiallar qoʻllanildi. Dala tajribalarida fenologik kuzatuvlar, biometrik oʻlchamlar olib borildi, tuproq iqlim sharoitiga qanday moslashib borilishi hamda sabzavot ekinlarining texnik va biologik yetilishi oʻrganildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Kartoshkaning serhosil navlarini tanlash hamda ekish sxemasini aniqlash ishning nazariy va amaliy ahamiyati hisoblanadi.

Kartoshkaning Sante navi sizot suvlari yaqin joylashgan tuproqlarda 70x25 sm sxemada ekilsa yuqori va sifatli hosil berishi ilmiy asoslab berildi.

Kartoshka nav naʼmunalarini asosiy ekin sifatida tugunagidan yetishtirishda ekiladigan navni, toʻgʻri tanlash fermer xoʻjaliklariga iqtisodiy samara keltiradi.

Muhokama. Maʼlumki, maydon birligida shakllangan assimilyasiya yuzasining kattaligi ekin hosildorligini belgilovchi omillaridan biri boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun xam tajribalarimizda oʻsimliklar unib chiqqandan 20 kundan soʻng har 10 kun muddatlarda ularning barg yuzasi va shunga muvofiq ravishda maydon birligiga toʻgʻri keladigan assimilyasiya yuzasi aniqlandi.

Tajribalarning koʻrsatishicha, urugʻlik tuganaklarni ekish oldi tayyorlash oʻsimliklarda barg yuzasining oshishiga olib kelishidan tashqari bunday yuzaning erta shakllanishiga sabab boʻladi. Masalan, unib chiqishdan 20 kun oʻtgandan soʻng tuganaklar oʻstirib ekilgan variantda Zarafshon navining har bir oʻsimligining barg yuzasi oʻrtacha 2440 sm² ni tashkil etgan boʻlsa, nazorat variantda har bir oʻsimlikda oʻrtacha 2315sm² ni barg yuzasi shakllangan. Kartoshkaning Nevskiy navida bu koʻrsatgich shunga muvofiq ravishda 2040 va 1803 sm² ni, Sante navida esa 2430 va 2285 sm² boʻlganligini koʻrish mumkin. Bu paytda gektarida oʻrtacha variantlar va navlar boʻyicha 10,0 – 13,7 ming m² assimilyasiya yuzasi shakllandi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, oʻsimliklarning oʻsishi va rivojlanishini jadallashtirish maqsadida urugʻlik tuganaklarni ekish oldidan yorugʻ sharoitda oʻstirib olish va mineral oʻgʻitlar va mikroelementlar eritmasida ishlash.

1. Sinalgan kartoshka nav-naʼmunalaridan oʻrtapishar Sante navlari virusli kasalliklariga chidamligi jixatidan Zarafshon navidan ustunlik qildi.

2. Kartoshkaning Sante navi oʻzini har qanday tuproq iqlim sharoitiga moslasha olishi hamda serhosilligi bilan Zarafshon navidan keskin ajralib turdi (48.5t)

3. Oʻrganilgan kartoshka navi Sante (158,3 g) Zarafshon (132,4 gr) ga nisbatan tovarbop yirik tugunak shakllantirishlari bilan ajralib turdi.

4. Sinalgan kartoshka navlaridan Sante navining iqtisodiy samaradorligi qiyosiy oʻrganilganda Zarafshon nisbatan yuqori boʻlib, oʻrta hisobda sof foyda 21545700 soʻmga teng boʻldi. Bu esa Zarafshon navi (17084000 soʻm) ga nisbatan 4461700 soʻm koʻproq foyda keltirayotganini koʻrish mumkin.

5. Kartoshkani virus kasalliklari turlari bilan zaralanishini keskin kamayishini taʼminlash uchun uni urugʻlarini fevral oyining uchinchi 10 kunligida

(dekadasida) ekish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

6. **Xulosa qilinganda** erta muddatlarda ekilgan urug‘lar to‘liq (75%) ko‘chatlari, urug‘ ekilganidan 13 kundan, kechki muddatda ekilgan urug‘lar to‘liq (75%) nixollari esa 5-6 kun oldin hosil bo‘ldi. Bunga asosiy sabab urug‘larga yorug‘likning yetarli bo‘lishi hamda tabiiy xoldagi issiqlikning ta’sir etishidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi 2020-yil 6-maydagi PQ-4704- son qarori.

2. Ostonaqulov TE, Zuyev VI, Qodirxo‘jayev OK. Sabzavotchilik; Darslik.Navro‘z.- Toshkent; 2018 (2020)- 552 bet

3. Ostonaqulov. O‘zbekistonda tugunak mevali ekinlar. Monografiya; Navro‘z-Toshkent: 2020- 324 bet